

UDK: 338.48-6:615.8

Ismoilova Firuza Ulug'bek qizi

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti
Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 2-bosqich magistranti

TIBBIY TURIZM SOG'LIQNI SAQLASH TURIZMINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA: KONSEPTUAL TAHLIL

Annotatsiya.

Mazkur ilmiy maqolada tibbiy turizm tushunchasi sog'liqni saqlash turizmining tarkibiy qismi sifatida nazariy va konseptual jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tibbiy turizmga oid ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish, uning konseptual mazmuni va chegaralarini aniqlash hamda sog'liq turizmi tizimidagi o'rnini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, unda xorijiy monografiyalar va ilmiy manbalar asosida kontent-tahlil hamda komparativ tahlil metodlari qo'llanildi. Tahlil natijalari tibbiy turizm tushunchasiga berilgan ta'riflar o'rtasida turli yondashuvlar mavjudligini, sog'liq turizmi doirasida tibbiy va wellness yo'nalishlar o'zaro kesishishini hamda tibbiy turistlarning motivatsiyasi push-pull omillari orqali izohlanishini ko'rsatdi. Maqola natijalari O'zbekiston sharoitida tibbiy turizmni ilmiy asosda o'rganish va uni barqaror rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun konseptual asos yaratadi.

Kalit so'zlar: tibbiy turizm, sog'liq turizmi, wellness turizmi, konseptual yondashuv, kontent-tahlil, push-pull modeli.

Abstract:

This article provides a theoretical and conceptual analysis of medical tourism as an integral component of health tourism. The main aim of the study is to synthesize existing academic perspectives on medical tourism, clarify its conceptual content and boundaries, and substantiate its position within the broader health tourism framework. The research is theoretical in nature and applies content analysis and comparative analysis based on selected foreign monographs and relevant scholarly literature. The findings reveal that there is no single unified definition of medical tourism in international research; instead, multiple approaches coexist. The results also demonstrate the intersection between medical tourism and wellness tourism within the health tourism structure and explain medical tourists' travel motivations through the push-pull framework. The article contributes to building a conceptual foundation for further research and for developing mechanisms to ensure the sustainable development of medical tourism in Uzbekistan.

Keywords: medical tourism, health tourism, wellness tourism, conceptual framework, content analysis, push-pull model.

Kirish:

Asrlar davomida insoniyat jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanib borishi hamda turizm faoliyatining keng ommalashuvi natijasida sog'liqni saqlash turizmi zamonaviy turizm bozorining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur yo'nalish tarkibida tibbiy turizm ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltirayotgan istiqbolli segment sifatida shakllanib, xizmatlar ko'lami va iste'molchilar soni jihatidan tobora kengayib bormoqda.¹

Ilmiy adabiyotlarda tibbiy turizm turli yondashuvlar asosida izohlanadi. Xususan, tibbiy turizm dalillarga asoslangan tibbiy shifo resurslari va tibbiy xizmatlardan foydalanishga yo'naltirilgan turizm faoliyatining bir turi bo'lib, u diagnostika, davolash, profilaktika hamda reabilitatsiya jarayonlarini qamrab olishi mumkin². Shuningdek, mazkur yo'nalish fuqarolarning doimiy yashash joyidan tashqarida zarur tibbiy xizmatlarni olish imkoniyatlarini yaratish bilan

¹Khosravizadeh O., Vosoughi P., Ghanbari E., Salarvand S., Maleki A. International Standards for Medical Tourism: A Systematic Review of Iranian Hospitals' Status // J Health Man & Info. – 2020. – Vol. 7, No. 1. – P. 10–18.

² <https://www.unwto.org/glossary-tourism-terms>

birga, safar jarayonida turistik hamda qo'shimcha servis xizmatlaridan foydalanishni ham o'z ichiga oladi.¹ Demak, tibbiy turizm sog'liq turizmining tarkibiy qismi sifatida tibbiy xizmatlar va turistik xizmatlar integratsiyasi bilan tavsiflanadi.

Tibbiy turizmning shakllanishi va kengayib borishida iste'molchi motivatsiyasi muhim omil hisoblanadi. Xorijiy ilmiy manbalarda tibbiy turistlarni safarga undovchi asosiy motivlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:² tijoriy omillar — davolanish va diagnostika xarajatlarining pastligi hamda tibbiy safarni an'anaviy dam olish turizmi bilan birlashtirish imkoniyati; sifat omillari — zamonaviy tibbiy texnologiyalar, yuqori malakali tibbiy xizmat va servisni kutish hamda tanlangan shifokorlarning yutuqlariga yo'naltirilganlik; ijtimoiy omillar — tibbiy sug'urtaning yo'qligi yoki yetarli emasligi, sug'urtaning ayrim muolajalarni qoplamasligi, davlat sug'urtasining to'liq ishlamasligi, xususiy sug'urtaning qimmatligi va "bypass tourism", ya'ni o'z mamlakatida mavjud bo'lmagan muolajalarni olish zarurati; shaxsiy omillar — davolanish jarayonida maxfiylikni saqlash ehtiyoji, shaxsiy qarashlar hamda yaqin ijtimoiy muhit tajribasining ta'siri.

Mazkur motivatsion omillar tibbiy turist xatti-harakatini tushuntirishda push–pull modeli orqali ham izohlanadi.³ Push omillar bemorni tibbiy safarga undovchi ichki va tizimli sabablarni (masalan, navbat muammosi, xizmat sifati, sug'urta cheklovlari) ifodalasa, pull omillar aniq destinatsiya va tibbiy muassasani tanlashga tortuvchi jihatlar (narx, sifat, texnologiya, servis va ijtimoiy-madaniy muhit)ni aks ettiradi. Ushbu yondashuv tibbiy turizm bozorini o'rganish, iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash va raqobatbardosh tibbiy turizm mahsulotini shakllantirishda muhim konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy ilmiy adabiyotlarda tibbiy turizm tushunchasi keng yoritilgan bo'lsa-da, o'zbek tilidagi ilmiy manbalarda mazkur yo'nalishning konseptual chegaralari, sog'liq turizmi tizimidagi o'rni hamda motivatsion omillari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur holat O'zbekiston sharoitida tibbiy turizmni rivojlantirishga oid ilmiy asoslangan yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi.

Tadqiqot nazariy va konseptual xarakterga ega bo'lib, unda konseptual adabiyotlar tahlili metodi qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tibbiy turizm tushunchasini sog'liqni saqlash turizmining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish, uning konseptual mazmuni va chegaralarini aniqlash hamda mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqot empirik ma'lumotlarga emas, balki mavjud ilmiy adabiyotlarga tayangan holda olib borildi. Shu sababli mazkur ish nazariy tadqiqot sifatida ishlab chiqildi. Tadqiqotda miqdoriy yoki statistik usullar qo'llanilmadi, asosiy e'tibor tibbiy turizm tushunchasining nazariy asoslarini ochib berishga qaratildi.

Tadqiqot materiallari sifatida tibbiy turizm va sog'liqni saqlash turizmi sohasida eng muhim va fundamental hisoblangan xorijiy monografiyalar tanlab olindi. Ushbu monografiyalar muallif tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, ular tibbiy turizm tushunchasiga aniq ta'rif berishi, uning konseptual chegaralarini yoritishi hamda sog'liqni saqlash turizmi bilan o'zaro bog'liqligini tushuntirishi bilan ajralib turadi. Tanlangan manbalar tibbiy turizmning nazariy shakllanishi va rivojlanishini yoritishda yetarli ilmiy asosni ta'minlaydi.

Ilmiy manbalarni tanlash jarayonida quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

- ✓ manbaning tibbiy turizm mavzusiga bevosita aloqadorligi;
- ✓ tibbiy turizm tushunchasiga nazariy yoki konseptual yondashuv berilganligi;
- ✓ manbaning ilmiy e'tirof etilganligi va fundamental xarakterga egaligi;
- ✓ sog'liqni saqlash turizmi bilan bog'liqlikning yoritilganligi.

Tadqiqot davomida tibbiy turizmga oid terminologik aniqlikni ta'minlash maqsadida asosiy

¹ <https://tourquality.uz/uz/press-center/news/meditsinskiy-turizm>

² Vovk V., Beztelesna L., Pliashko O. Identification of Factors for the Development of Medical Tourism in the World // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2021. – Vol. 18. – Art. 11205. – DOI: 10.3390/ijerph182111205.

³ Singh L. Medical Tourism Motivations: The Driving Force // Journal of Multidisciplinary Academic Tourism. – 2019. – Vol. 4, No. 2. – P. 77–86. – URL: www.jomat.org

tushunchalar sifatida “medical tourism”, “health tourism” va “conceptual framework” kabi atamalardan foydalanildi. Ushbu terminologik asos tibbiy turizm tushunchasini aniqlashtirish va konseptual tahlil qilishda metodologik yo‘naltiruvchi vazifani bajardi.

Tanlangan ilmiy manbalar kontent-tahlil usuli asosida o‘rganildi. Ushbu jarayonda tibbiy turizmga berilgan ta’riflar, asosiy tushunchalar va yondashuvlar aniqlanib, ularning mazmuni tizimlashtirildi. Shuningdek, turli mualliflarning qarashlari komparativ tahlil yordamida solishtirilib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari belgilandi.

Tahlil natijalari induktiv umumlashtirish asosida birlashtirilib, tibbiy turizmning sog‘liqni saqlash turizmidagi o‘rni, rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar hamda tibbiy turistlarning asosiy toifalari bo‘yicha konseptual xulosalar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv tibbiy turizm tushunchasining murakkab tuzilmasini chuqur anglash va uning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini berdi.

Natijalar.

5.1. Sog‘liq turizmining konseptual doirasi va nazariy talqini.

Tanlangan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tibbiy turizm xorijiy ilmiy adabiyotlarda uzoq yillardan buyon keng o‘rganib kelinayotgan yo‘nalish hisoblanadi. Biroq mazkur tushunchaga berilgan ta’riflar va yondashuvlar o‘rtasida yagona va qat’iy nazariy kelishuv mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilar tibbiy turizmni sog‘liqni saqlash turizmining tarkibiy qismi sifatida talqin qilsa, boshqalari uni mustaqil turizm yo‘nalishi sifatida izohlaydi. Shu bilan birga, tahlil natijalari tibbiy turizmning nazariy asoslari xorijiy manbalarda yetarli darajada yoritilganini, ammo o‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda ushbu tushunchaning aniq va tizimli konseptual talqini yetishmasligini ko‘rsatdi.

Ilmiy adabiyotlarda sog‘liq, wellness va tibbiy turizmni bir-biridan farqlash mumkin bo‘lib, sog‘liq turizmi wellness turizmi va tibbiy turizmni o‘z ichiga oluvchi umumlashtiruvchi (umbrella) tushuncha sifatida qoraladi.¹

Ushbu yondashuv keyinchalik sog‘liq turizmi tushunchasini kengroq konseptual doirada talqin qilishga bo‘lgan urinishlar bilan ham mustahkamlandi. Xususan, 2013-yilda Germaniyaning Rostok shahrida bo‘lib o‘tgan Sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti bo‘yicha 9-milliy konferensiya doirasida sog‘liq turizmi uchun yangi ta’rif ishlab chiqishga qaratilgan muhokama o‘tkazildi. Ushbu muhokama natijasida sog‘liq turizmi quyidagicha ta’riflandi:

*Sog‘liq turizmi — bu sog‘liqni saqlash va turizm iqtisodiyotlari tutashgan sohasi bo‘lib, tibbiyotga asoslangan xizmatlardan foydalanish orqali sog‘liqni saqlash, tiklash hamda umumiy va yaxlit farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi.*²

Mazkur yondashuvlar sog‘liq turizmi faqat tibbiy muolajalar bilan cheklanmasdan, balki reabilitatsiya jarayonlari, jumladan spa va wellness muolajalarini ham o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi. Shu sababli sog‘liq turizmi davolanish maqsadida sayohat qilayotgan bemorlarga ham, shuningdek sog‘liq va kasallik o‘rtasidagi holatda bo‘lgan, sog‘lig‘ini yaxshilashni istagan shaxslarga ham taalluqli hisoblanadi.³ Yuqoridagi umumiy konseptual doira doirasida tibbiy turizm sog‘liqni saqlash turizmining alohida va muhim tarkibiy qismi sifatida ajralib chiqadi. Shu sababli keyingi bosqichda tibbiy turizm tushunchasiga xorijiy tadqiqotchilar tomonidan berilgan asosiy ta’riflar va yondashuvlar taqqoslab tahlil qilindi.

Tadqiqotchilar	Yil	Tibbiy turizmga berilgan ta’rif / asosiy yondashuv
Smith & Puczkó	(2009)	Shaxsning doimiy yashash joyidan tashqariga tibbiy davolanish, aralashuvlar yoki terapiyalar olish maqsadida amalga oshiriladigan sayohat bo‘lib, bunda bemor va unga hamrohlik qiluvchilar borilgan hududning turistik

¹ Smith M. K., Puczkó L. Health, tourism and hospitality: spas, wellness and medical travel. – 2nd ed. – London: Routledge, 2013.

² Health tourism is a conscious and voluntary decision to travel outside the usual place of residence in order to regenerate the body and improve physical and mental health during the leisure [Wolski 1970; Medlik 1995; Gaworecki 2010].

³ Rab-Przybyłowicz J. Medical tourism: Theoretical considerations //Studia Periegetica. – 2016. – T. 16. – C. 13-31.

		infratuzilmasi va xizmatlaridan ham foydalanadilar.
Henderson	2004	Kasallik yoki xastalik sababli amalga oshiriladigan sayohatlar (masalan, tibbiy aralashuvlar va sog'liqni tekshiruvlar) shifoxona, klinika va stomatologik muassasalarga tashrif buyuruvchi shaxslar uchun asosiy motivatsiya hisoblanadi.
Connell	(2011)	Shaxslarning tibbiy davolanish, diagnostika yoki boshqa tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida o'z yashash mamlakatidan tashqariga, ko'pincha davlatlararo chegaralarni kesib o'tgan holda amalga oshiradigan sayohati bo'lib, ushbu jarayon ko'p hollarda turistik faoliyat elementlari bilan birga kechadi.
Global Spa Summit	(2011)	Kasallik, xastalik yoki muayyan tibbiy holatni davolash maqsadida boshqa hududga sayohat qiluvchi shaxslarni o'z ichiga oladi.
Medical Tourism Association	(2013)	Bir mamlakatda yashovchi shaxslarning boshqa mamlakatga yoki o'z mamlakati doirasida tibbiy, stomatologik va jarrohlik xizmatlarini olish maqsadida amalga oshiradigan sayohatidir.

1-jadval. Tibbiy turizm tushunchasiga berilgan asosiy ilmiy ta'riflar va yondashuvlar


Manba: Smith & Puczkó (2009), Connell (2011), Global Spa Summit (2011), Medical Tourism Association (2013) hamda Henderson (2004) ta'rif bo'yicha Rab-Przybyłowicz (2016) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvalda keltirilgan ta'riflar tibbiy turizm tushunchasiga turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Ayrim manbalarda tibbiy turizm davolanish jarayoni bilan bir qatorda turistik xizmatlardan foydalanishni ham o'z ichiga olgan integratsion faoliyat sifatida talqin qilinsa (Smith & Puczkó, 2009; Connell, 2011), boshqalarida esa kasallik va tibbiy aralashuv motivatsiyasiga asosiy urg'u beriladi (Henderson, 2004; Global Spa Summit, 2011). Shu bilan birga, institutsional ta'riflar tibbiy turizmni sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishga qaratilgan transchegaraviy harakat sifatida izohlaydi (Medical Tourism Association, 2013). Ushbu farqlar tibbiy turizmning sog'liq turizmi tarkibida ko'p qirrali va murakkab hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

5.2. Sog'liq turizmining tarkibiy tuzilmasi: tibbiy va wellness yo'nalishlar.

Ilmiy adabiyotlarda sog'liq turizmi tarkibida tibbiy turizm va farovonlik (wellness) turizmi o'zaro bog'liq, biroq mazmunan farqlanuvchi yo'nalishlar sifatida talqin qilinadi. 1-rasmda ushbu yo'nalishlar alohida segmentlar ko'rinishida berilib, ayrim xizmat turlari ikki yo'nalishning kesishuvchi qismida joylashgani ko'rsatilgan.

Xususan, transplantatsiya, ildiz hujayralari bilan davolash, reproduktiv salomatlik va abort kabi xizmatlar bevosita klinik aralashuvga asoslangan bo'lib, tibbiy turizm segmentiga kiradi. Aksincha, parvarish va go'zallik muolajalari, ruhiy-amaliy yondashuvlar hamda sport turizmi wellness segmenti doirasida jamlanadi. Shu bilan birga, stomatologik xizmatlar, estetik jarrohlik va vazn kamaytirish yo'nalishlari tibbiy va wellness turizmi kesishgan qismida joylashib, ularning integratsion xarakterga egaligini ko'rsatadi.



1-rasm. Sog'liq turizmining konseptual tuzilmasi: tibbiy va farovonlik (wellness) turizmi hamda ularning kesishuvchi yo'nalishlari.¹

Manba: Hall (2011) konseptual modeli asosida muallif tomonidan moslashtirilgan.

Ushbu-tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijiy ilmiy adabiyotlarda tibbiy turizmning tor ma'nodagi yo'nalishlari turli atamalar bilan ifodalanadi va ular asosan davolash turi hamda safar qilish motivatsiyasiga qarab farqlanadi (Lubowiecki-Vikuk, 2015). Jumladan, Rab-Przybyłowicz (2016) tibbiy turizm terminlarini tizimlashtirib, uning ichida **jarrohlik, stomatologik** va **reproduktiv turizm** kabi yo'nalishlarni alohida ajratib ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishlaru diagramma sog'liq turizmi tarkibida **tibbiy turizm** va **farovonlik (wellness) turizmi** alohida yo'nalish sifatida mavjudligini, shuningdek ayrim xizmatlar ikki yo'nalishning **kesishgan qismida** joylashishini ko'rsatadi (Hall, 2011a). Konte Hallning konseptual modelida ayrim hollarda bevosita, ayrim hollarda esa bilvosita tarzda aks etgan bo'lib, quyida ularning mazmuni izohlanadi.²

1. **Jarrohlik turizmi (Surgical tourism)** — shaxsning doimiy yashash joyidan tashqarida turli jarrohlik amaliyotlaridan foydalanish maqsadida safar qilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu yo'nalishning asosiy harakatlantiruvchi omili jarrohlik muolajalarining mavjudligi hamda ularga tezkor kirish imkoniyatidir (Evans, 2008; Rab-Przybyłowicz, 2016). Hall (2011a) modelida "jarrohlik turizmi" termini alohida nom sifatida berilmagan bo'lsa-da, ushbu yo'nalish estetik (kosmetik) jarrohlik hamda transplantatsiya kabi xizmatlar orqali tibbiy turizm segmentida ifodalanadi.

2. **Stomatologik turizm (Dental tourism)** — jahonda eng ommabop yo'nalishlardan biri bo'lib, asosan tish davolash, protez va implant xizmatlarini arzonroq hamda sifatliroq sharoitda olish motivatsiyasi bilan izohlanadi (Rab-Przybyłowicz, 2016). Hall (2011a) modeliga ko'ra, stomatologik xizmatlar tibbiy turizm va wellness turizmi kesishgan segmentda joylashgan. Bu

¹ Hall C. M. Medical tourism: the ethics, regulation, and marketing of health mobility / ed. by C. Michael Hall. – London: Routledge, 2011. – P. 12.

² Rab-Przybyłowicz J. Medical tourism: Theoretical considerations // Studia Periegetica. – 2016. – Vol. 16. – P. 15. (Lubowiecki-Vikuk; Evans, 2008; Lubowiecki-Vikuk & Mucha, 2015; Deomampo, 2013 bo'yicha).

holat stomatologik xizmatlar ayrim vaziyatlarda klinik davolanish zarurati, boshqa holatlarda esa estetik maqsad va hayot sifatini oshirish motivatsiyasi bilan bog'liq bo'lishini ko'rsatadi.

3. Fertilitet / reproduktiv turizm (Fertility/Reproductive tourism) — bepushtlikni davolash, EKO (in vitro urug'lantirish) va reproduktiv salomatlikka oid xizmatlarni olish uchun boshqa mamlakatga safar qilish amaliyotidir (Deomampo, 2013; Rab-Przybyłowicz, 2016). Mazkur yo'nalishni shakllantiruvchi asosiy motivatsiyalar narx farqi, xizmatlarning mavjudligi hamda embrion muzlatish, genetik test kabi tartib-qoidalar bilan bog'liq regulativ cheklovlardir. Hall konseptual modelida reproduktiv salomatlik tibbiy turizm segmentining tarkibiy qismi sifatida keltirilgan bo'lib, u bevosita klinik tibbiy aralashuvga asoslangan yo'nalish sifatida baholanadi.

4. Ildiz hujayralari bilan davolash (Stem-cell tourism) — ildiz hujayralari asosida davolash tibbiy turizmning zamonaviy va yuqori texnologiyali yo'nalishlaridan biri bo'lib, turli kasalliklarni davolash yoki organizmni tiklash maqsadida maxsus klinikalarda amalga oshiriladi. Ushbu xizmat Hall (2011a) modelida tibbiy turizm segmenti doirasida joylashgan.

5. Abort turizmi (Abortion tourism) — abort qonunchiligi qat'iy cheklangan mamlakatlardan (masalan, Irlandiya va Polsha) abort masalasida nisbatan erkin tartibga ega mamlakatlarga (Chexiya Respublikasi, Litva, Germaniya, Slovakiya, Shvetsiya va Buyuk Britaniya) borib tibbiy xizmat olish amaliyotini anglatadi (Rab-Przybyłowicz, 2016). Hall (2011a) konseptual modelida mazkur yo'nalish tibbiy turizm segmentida joylashgan bo'lib, u klinik xizmat bo'lishiga qaramay, huquqiy hamda axloqiy munozaralarning kuchliligi bilan ajralib turadi.

6. Transplantatsiya turizmi (Transplant tourism) — ayrim adabiyotlarda "tibbiy imperializm" deb ham atalib, bemorlarning o'z yashash mamlakatidan tashqariga chiqib, organ ko'chirib o'tkazish (transplantatsiya) xizmatlarini olish maqsadida safar qilishini anglatadi (Rab-Przybyłowicz, 2016). Manbalarga ko'ra, har yili G'arbiy Yevropa, AQSh, arab mamlakatlari, Yaponiya va Isroildan minglab moddiy imkoniyati yuqori bemorlar Xitoy, Hindiston va Pokistonga buyrak, yurak yoki o'pka kabi organ transplantatsiyasi uchun borishi qayd etiladi. Shuningdek, tirik donordan olingan organlar ba'zan vafot etgan shaxsdan olingan organlarga nisbatan samaraliroq ishlashi ta'kidlanadi. Biroq JSST (WHO) inson organlari savdosi hamda noqonuniy trafficking holatlarini keskin qoralaydi. Ushbu muammoga qarshi kurashish maqsadida 2008-yilda qabul qilingan Istanbul Deklaratsiyasi deyarli 100 ta mamlakat tomonidan imzolangan (Piaseczny, 2012; Rab-Przybyłowicz, 2016).¹ Hall (2011a) konseptual modelida transplantatsiya yo'nalishi tibbiy turizm segmentida joylashgan.

7. Wellness (farovonlik) turizmi yo'nalishlari — Hall (2011a) modeliga ko'ra, farovonlik turizmi doirasida parvarish muolajalari, go'zallik muolajalari, ruhiy-amaliy yondashuvlar hamda sport turizmi kabi yo'nalishlar jamlangan. Ushbu xizmatlar bevosita davolashdan ko'ra, insonning jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash, stressni kamaytirish hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

5.3. Tibbiy turizm iste'molchilarining motivatsiyasi va tanlov omillari (push-pull modeli asosida)

Push-pull modeli tibbiy turistlarning safar qarorini shakllantirish jarayonini tizimli tushuntirish imkonini beruvchi konseptual yondashuvlardan biridir (2-rasm). Mazkur modelning ahamiyati shundaki, u tibbiy turizm bozorida talabni yuzaga keltiruvchi omillar bilan destinatsiya va klinikani tanlash omillarini alohida tahlil qilishga imkon beradi. Natijada marketing, xizmatlar sifati, narx siyosati hamda infratuzilma kabi yo'nalishlarda qarorlarni ilmiy asoslash osonlashadi.



2-rasm: Tibbiy turizm motivatsiyasi omillari (push–pull modeli).¹

Manba: Singh (2019) asosida muallif tomonidan moslashtirilgan.

Tibbiy turistlarning safar qarorini shakllantiruvchi motivatsion omillar tizimlashtirilgan bo'lib, push omillar tibbiy sayohatni boshlashga turtki bersa, pull omillar aniq destinatsiya va tibbiy muassasa tanlovini belgilaydi. Ushbu omillarni chuqur o'rganish tibbiy turizm bozorida iste'molchi ehtiyojlari va kutishlarini aniqlash, ya'ni bozor talabini baholash imkonini beradi. Natijada tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, raqobatbardosh qiymat taklifini (value proposition) shakllantirish hamda tibbiy turizm yo'nalishida samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy asos yaratiladi.

Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari tibbiy turizm sog'liq turizmi tizimida murakkab va ko'p qirrali hodisa ekanligini ko'rsatdi. Kontent-tahlil asosida aniqlanishicha, xorijiy ilmiy adabiyotlarda tibbiy turizm keng yoritilgan bo'lsa-da, uning konseptual chegaralari bo'yicha yagona nazariy kelishuv mavjud emas. Bu holat tibbiy turizmni sog'liq turizmining tarkibiy qismi sifatida ham, ayrim vaziyatlarda nisbatan mustaqil yo'nalish sifatida ham talqin qilish mumkinligini anglatadi.

Hall (2011) konseptual modeli doirasida sog'liq turizmining tibbiy va wellness yo'nalishlarga ajratilishi, shuningdek ayrim xizmatlarning kesishuvchi segmentda joylashishi tibbiy turizmning qat'iy chegaralangan tushuncha emasligini tasdiqlaydi. Ya'ni, tibbiy turizm doirasida faqat klinik davolash emas, balki farovonlik va hayot sifatini oshirishga oid elementlar ham aralash holda uchrashi mumkin. Bu esa tibbiy turizmni tahlil qilishda xizmat turi bilan bir qatorda turistning safar motivatsiyasini ham muhim mezon sifatida e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, tahlil natijalari tibbiy turizm ichki tarkibida jarrohlik, stomatologik, reproduktiv, transplantatsiya hamda yuqori texnologiyali xizmatlar kabi yo'nalishlar mavjudligini ko'rsatdi. Demak, tibbiy turizmni yagona yo'nalish sifatida emas, balki bir nechta segmentlarga ega tizim sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Push–pull modeli bo'yicha olingan natijalar tibbiy turistlarning xatti-harakatini tushuntirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Push omillar safarga undovchi ichki sabablarni (xizmat sifati, navbat, sug'urta cheklovlari va boshqalar) ifodalasa, pull omillar aniq destinatsiya va klinikani tanlashga tortuvchi jihatlarni (narx, texnologiya, sifat, shaxsiylashtirilgan

¹ Singh L. Medical Tourism Motivations: The Driving Force // Journal of Multidisciplinary Academic Tourism. – 2019. – Vol. 4, No. 2. – P. 77–86. – DOI: 10.31822/jomat.621874.

servis) belgilaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, tibbiy turizm bozorida raqobat faqat narx bilan emas, balki xizmat sifati, texnik baza, ishonch va servis madaniyati bilan ham belgilanadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari asosida tibbiy turizm xorijiy ilmiy adabiyotlarda sogʻliq turizmining (health tourism) muhim segmenti sifatida shakllangani hamda wellness turizmi bilan ayrim kesishuvchi jihatlariga ega ekani konseptual jihatdan asoslab berildi. Ushbu xulosa Oʻzbekiston sharoitida tibbiy turizmni tor doirada alohida yoʻnalish sifatida emas, balki sogʻliq turizmining kengroq tizimi doirasida kompleks mahsulot sifatida rivojlantirish zarurligini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, Oʻzbekistonda, xususan hududlar kesimida tibbiy turizmni rivojlantirish masalasi avvalo bozor mexanizmlarini ilmiy asosda oʻrganishni talab qiladi. Tibbiy turizmni samarali tashkil etish va uni istiqbolli yoʻnalish sifatida shakllantirish uchun bozor talabining mazmuni, tibbiy turistlarning ehtiyojlari, ularning tanlov xatti-harakati hamda safar motivatsiyasiga taʼsir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish zarur. Hududlarda tibbiy turizm xizmatlariga boʻlgan talabni aniqlash, isteʼmolchilar kutishlarini baholash hamda tibbiy turistlar motivatsiyasini (push–pull omillari) chuqur oʻrganish bozorning real ehtiyojlarini belgilash imkonini beradi. Bu esa oʻz navbatida xizmatlar paketini talabga moslashtirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, klinikalar va turizm sektori oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda hududiy resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Natijada bozorni ilmiy asosda oʻrganish tibbiy turizmni barqaror rivojlantirishga qaratilgan strategiya va mexanizmlarni ishlab chiqish, boshqaruv va marketing tizimini takomillashtirish hamda hududiy tibbiy turizm klasterlarini shakllantirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Khosravizadeh O., Vosoughi P., Ghanbari E., Salarvand S., Maleki A. International Standards for Medical Tourism: A Systematic Review of Iranian Hospitals' Status // J Health Man & Info. – 2020. – Vol. 7, No. 1. – P. 10–18.
2. UNWTO. Glossary of tourism terms. – URL: <https://www.unwto.org/glossary-tourism-terms>
3. Tourquality. Meditsinskiy turizm. – URL: <https://tourquality.uz/uz/press-center/news/meditsinskiy-turizm>
4. Vovk V., Beztelesna L., Pliashko O. Identification of Factors for the Development of Medical Tourism in the World // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2021. – Vol. 18. – Art. 11205. – DOI: 10.3390/ijerph182111205.
5. Singh L. Medical Tourism Motivations: The Driving Force // Journal of Multidisciplinary Academic Tourism. – 2019. – Vol. 4, No. 2. – P. 77–86.
6. Smith M. K., Puczkó L. Health, tourism and hospitality: spas, wellness and medical travel. – 2nd ed. – London: Routledge, 2013.
7. Health tourism is a conscious and voluntary decision to travel outside the usual place of residence in order to regenerate the body and improve physical and mental health during the leisure [Wolski 1970; Medlik 1995; Gaworecki 2010].
8. Rab-Przybyłowicz J. Medical tourism: Theoretical considerations // Studia Periegetica. – 2016. – T. 16. – C. 13-31.
9. Smith M. K., Puczkó L. Health, tourism and hospitality: wellness, spas and medical travel. – 2nd ed. – London: Routledge, 2013
10. Henderson J. Healthcare Tourism in Southeast Asia // Tourism Review International. – 2004. – No. 3–4. – P. 111–121 (Rab-Przybyłowicz, 2016)
11. Global Spa Summit/GSS (2011) Wellness Tourism and Medical Tourism: Where Do Spas Fit? New York: Global Spa Summit.
12. Medical Tourism Association (2013) 'Healthcare Clusters, Medical Clusters and Healthcare Associations' www.medicaltourismassociation.com/en/healthcare-clusters.html (accessed 5 March 2013)

13. Connell, J. (2011) Medical Tourism. Wallingford: CABI.
14. Henderson J., 2004, Healthcare Tourism In Southeast Asia, *Tourism Review International*, 3-4, 111-121.
15. Hall C. M. Medical tourism: the ethics, regulation, and marketing of health mobility / ed. by C. Michael Hall. – London: Routledge, 2011. – P. 12.
16. Rab-Przybyłowicz J. Medical tourism: Theoretical considerations // *Studia Periegetica*. – 2016. – Vol. 16. – P. 15. (Lubowiecki-Vikuk; Evans, 2008; Lubowiecki-Vikuk & Mucha, 2015; Deomampo, 2013 bo'yicha).
17. Singh L. Medical Tourism Motivations: The Driving Force // *Journal of Multidisciplinary Academic Tourism*. – 2019. – Vol. 4, No. 2. – P. 77–86. – DOI: 10.31822/jomat.621874.